



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Boljon Sapayeva¹

Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи katta o’qituvchisi
E-mail: sapayeva-1980@mail.ru

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SINF DAN TASHQARI O‘QISH DARSLARINING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik, kitobdan to’g’ri foydalanish olish malakalarini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslarining ahamiyati masalasi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: mutolaa, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, kitob, kitobxonlik, mustaqil o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish.

РОЛЬ ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ЧТЕНИЮ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В данной статье освещен вопрос о значении уроков внеklassnogo чтения в формировании навыков чтения, правильного пользования книгой у младших школьников.

Ключевые слова: чтение, образование, воспитание, духовность, книга, самостоятельное чтение, внеурочная деятельность



THE ROLE OF EXTRACURRICULAR LESSONS IN THE FORMATION OF LIBRARY CULTURE IN PRIMARY SCHOOL PUPILS

Annotation. In this article, it is given the importance of extracurricular reading lessons in the formation of reading and reading skills in primary pupils.

Keywords: reading, education, upbringing, spirituality, books, reading, independent reading, extracurricular reading.

Kirish. O‘quvchilar tafakkurining o‘sishi, bilim doirasining kengayishi, narsa va voqealar haqidagi tasavvurlarining oshishi ularning tinmay mutolaa qilishiga ,o‘z ustida ishlashiga, izlanishiga bog‘liq.

Kitobning inson hayotida tutgan o‘rni benihoyadir.Yoshlikdan bolada kitobga mehr - muhabbat uyg‘otish uning ruhiy, ma’naviy oziqlanishiga yordam beradi. Maktabdagi tarbiya ishlari, avvalo ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim berishda faqat ma’lum bilimlargagina berish bilan cheklanmay, ularda kuchli e’tiqod, iroda va xarakter sifatlarini ham tarkib toptirishi, qobiliyat va iste’dodlarini o’stirish kerak.

Xalqimiz orzu qilgan va voyaga yetkazayotgan ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda boshlang‘ich ta’lim juda muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim ichida alohida ajralib turadi. Bu ta’lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan ijodkor shaxsni shakllantirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqini o’stirish, adabiy – estetik tafakkurini yuksaltirish o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Mamlakatimiz rahbarining 2017-yil 12- yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori keng jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi va keng ma’naviyat dargohlarining



e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. 2017-yil 13-sentabrdagi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasidagi navbatdagi qarori yuqoridagi fikrimizni asoslovchi muhim omil bo'ldi.

Maktabda ta'lim- tarbiya ishlarini yaxshilashda, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishida sinfdan tashqari o'qish darslarini muntazam ravishda o'tkazib turish yoshlarning hayotda o'z o'rinalarini egallashlarida muhim ahamiyatga egadir.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni kitoblarga, badiiy asarlarga qiziqishlarini oshirish, bilimlari asosida kitob ustida ishlash yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, dunyoqarashi va nutqlarini o'stirish hamda kutubxonada mustaqil ishlash tajribalarini paydo qilishdan iboratdir

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yosh kitobxonlarda kitobni mustaqil o'qishga havas uyg'otish; yosh xususiyatlariga mos bo'lgan adabiyotlar va ularning turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish, mustaqil o'qish uchun kitob tanlash, tanlangan kitoblarni ongli ravishda o'qib, o'qilganlarning mazmunini idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritishga o'rgatish talab etiladi. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Boshlang`ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Matbuotda bir qancha metodist va o'qituvchilarning maqolalari e'lon qilingan. Jumladan, professor Q.Abdullayeva, K.Qosimova, O. Safarov, S.Matchonov, B.Ma'qulova, T.Adashboyev, E.Abduvalitov , D.Shodmonqulova, X.G'ulomovalarning o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalari va maqolalari nashr etilgan. Ularda kitob tanlash tamoyillari, sinfdan tashqari o'qish darslari mavzulari, yozuvchi va shoirlar bilan tashkil etiladigan uchrashuvlar, sinfdan tashqari o'qish darslarida yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'rganish, sinfdan tashqari o'qish darslarida krossvordlar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha



B.Maqulova tadqiqot ishi olib borgan. Uning ishida ham o'quvchilar sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish borasida salmoqli fikrlar bayon qilingan.

Lekin jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda mustaqil o'qish uchun badiiy adabiyotlarning yaratilayotganligi aynan boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari uchun yangi o'quv materiallarini tanlash va o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Mutaxassislar bugungi kun kitob mutolaasi haqida ko'plab sabablarni sanab berishyaptiki, go'yo oxiri yo'qdek. Biroq bugungi chek-chegarasiz, keng-ko'lamli axborot oqimi o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratib qo'yayotganligi va pala-partish, bitmas-tuganmas ma'lumotlari bilan kitobxonlik saviyasiga putur etkazayotganligi aniq. Bu degani o'quvchilarni axborot manbalaridan chalg'itish kerak degani emas, internet xizmati, qo'l telefoni imkoniyatlari, telekanallar sonining turli-tumanligi – faol hayot bilan mashg'ul har qanday shaxsning kundalik turmush tarziga aylanib bormoqda. O'z navbatida bularning bari o'quvchi diqqati va tasavvurini chalg'itadigan omillar sirasiga ham kiradi.

Kitob mutolaasi birinchi navbatda o'quvchilar tasavvurini shakllantiradi. Bizning har bir harakatimiz, o'ylagan o'yimiz ma'lum bir tasavvurga asoslanadi. Biror narsa, voqeа, predmet voqealanishi uchun ham avvalo bizning tasavvurimiz g'alviridan o'tishi kerak bo'ladi. Ya'ni, bizning tasavvurimiz aralashmagan voqelik mavhumlidir. Hayotning eng muhim jihat shundaki, o'quvchi nimani tasavvur qilsa, o'shangagina erishadi. Inson tasavvuri reallikni yaratadi. Tarixda yuksak kashfiyotlar qilgan daholar o'z tasavvur doiralaridan ortig'iga ega buyuk insonlar bo'lishgan. Kitob mutolaasi jarayonida o'quvchining tasavvuri ishlaydi. U uzoq o'tmishni, kelajakni tasavvur qiladi. Zamondoshlari hayotini tasavvurida gavdalantiradi. Bu jarayon teleekrandagi jonsiz surat shaklida emas, o'quvchining ongida, tasavvur olamida sodir bo'ladi. Va o'z-o'zidan o'quvchining ongida ham o'zgartishlar yasashga qodir bo'ladi.



Kitob mutolaasi o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantiradi. Ma'lumki, har bir xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti, muomala madaniyatining rivojlanish tadriji o‘sha xalqning ma’naviyati shaklida namoyon bo‘ladi. Ularning ma’naviyati qadrlanadi, ularga hurmat bajo keltiriladi. Aslida o‘sha xalq ma’naviyatini shakllantiruvchi birinchi omil ta’lim-tarbiya jarayonining izchil yo‘lga qo‘yilganligidadir.

Ma’naviyat asosida tarbiya yotadi. Tarbiya ota-onas, mакtab, mahalla kabi omillar asosida shakllanadi. Yuqorida sanab o‘tilganlardan eng muhim mакtabdir. Umumta’lim mакtablarida o‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish uchun xizmat qiladigan barcha zaruriy shart-sharoitlar ishlab chiqilgan. Bu yoshlar ta’lim tarbiyasi uchun davlat tomonidan yaratilayotgan yuksak g‘amxo‘rlikdir. Biroq, natija ba’zi hollarda kutilganidek chiqmayotganligi tashvishli holdir. Ba’zi o‘quvchilarning aqliy “kitob javonlari”dan o‘qish darslarida o‘tilgan asarlar ham topilmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. O‘qish va nutq o‘stirish darslari jarayonida Davlat ta’lim standarti belgilagan mavzular asosida o‘quvchilarga muayyan bilim beriladi. O‘qish ko‘nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o‘quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazda bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish va nutq o‘stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘qish mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar to‘g‘ri, ongli, ravon, tez va ifodali o‘qishga o‘rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg‘usi uyg‘otiladi. O‘quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi.

Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi – o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Sinfdan tashqari o‘qish 1-2 sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada



1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'limgan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bu darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uygotish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirishdir.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

Sinfdan tashqari o'qish sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atni boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o‘rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o‘yini), eng yaxshi insholar, topishmoq topish, tanlovlardan o‘tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoa yoki individual ravishda ertak to‘qib aytish, o‘quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma’noli gap (hikmatli so‘z)lari va maqollarni aytish mumkin. Ba’zan o‘qituvchilar bunday darslarda «Hazil daqiqasi», «5 daqiqa o‘ylash uchun», «Topishmoqlarni top», «Bilimdonlar klubi» kabi qiziqarli mashg‘ulotlarni doimo o‘tkazib turadilar.

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o‘qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Bolani nima qiziqtirsa, u shu haqda fikr yuritadi, esda saqlab qoladi. Bu esa quvonch hislarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Dastlabki jarayonda o‘quvchilarni yangi sharoitlarga o‘rgatish, ko‘nktirish muhim o‘rin tutali. Buning uchun ishni biz birinchi kundan boshlab bolalarning individual xususiyatlarini kuzatishdan boshlashimiz maqsadga muvofiqdir. Ko‘pgina bolalar xavotirlanish, asabiylashishi seziladi, natijada ba’zi bir o‘quvchilarni hech narsa qiziqtirmaydi.



Sinfdan tashqari o‘qish darslarini matematika darslari bilan bog‘lash ko‘zlagan maqsadimizga erishishimizda katta yordam beradi. Dars boshlanishidan oldin biz quyidagilarni ma’lum qilamiz: «Bolalar, bugun biz sinfdan tashqari o‘qish darsida hisoblaymiz, misol yechamiz, ertak qahramonlari esa yaxshi javob bergan o‘quvchining qo‘lini ushlab, minnatdorchilik bildiradi». Bu gaplar bolalar faolligini oshiradi, ular tezda ishga kirishadilar va katta istak bilan ish boshladilar. Bundan tashqari har bir darsning boshlanishida bolalarda televidinie va radiodan qanday qiziqarli eshittirishlarni ko‘rdingiz deb so‘rash ham bolalarning qiziqish bilan hikoya qilishiga olib keladi. Mashg‘ulotning birinchi kunidan boshlab, bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga harakat qilish lozim.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘yin vositasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. O‘yin jarayonida ularning rasmlarini almashtirib borish kerak.

Bolalarning qiziqishini rivojlantirishi uchun ularning, faoliyatiga doimo rahbarlik qilish kerak. Darsda bolalar ko‘p eshitadilar, chizadilar, hikoya qiladilar. O‘quvchilarni yanada darsga qiziqtirish uchun ushbu ertakni o‘zingiz davom ettiring, o‘ylab topinglar, qahramonlarning nomini toping deb murojaat etish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘zlaricha o‘lay boshtagdilar, ularning e’tibori mazkur muammoga qaratilgan bo‘ladi. Sehrli soat esa har bir daqiqani bekor o‘tkazmang deb shoshiradi. Albatta, bunday darsni tashkil etish oson emas, darsga ertak qahramonlarini taklif qilib turish, ular tilidan o‘quvchilarni topshiriqlarni bajarishga undash darsning yanada qiziqarli bo‘lishiga olib keldi. Bolalar ular bergan topshiriqlarni o‘z xohishlari bilan bajaradilar. Biroq shu bilan birga bolalarda kutilmagan qiyinchiliklar ham yuzaga keldi. Chunki bolalar o‘qituvchining orqasidan yurishni, erkalatishini, shirin so‘zlar aytishini yaxshi ko‘rishadi. O‘qituvchi bunda ziyrak bo‘lib, hech bir o‘quvchini nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bolalarni e’tiborlilikka odatlantirish uchun dars jarayonida ularni qiziqtirish lozim.



Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi fikrmulohazalar asosida quyidagi takliflarni tavsiya etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Boshlang‘ich sinflarda uyushtiriladigan sinfdan tashqari o‘qish darslarini muntazam va qiziqarli tashkil etilishi, o‘quvchini badiiy asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan saviyasi yuqori bo‘lgan badiiy asarlar tanlab o‘qitilishi ularning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini o‘stiradi.
2. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida badiiy asar syujeti voqealari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, qahramonlarning fe‘l-atvori, asar mavzusi, tili ustida ishlashga e’tibor qaratilishi mustaqil o‘qishning mohiyatini anglashlariga olib keladi. Bolada mustaqil o‘qishga qo‘yiladigan talablarni anglash hissini paydo qiladi.
3. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida badiiy asar tahliliga doir o‘quv topshiriqlarini va sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish hamda mustaqil kitobxonlik darajasini oshirish uchun kitoblar tavsiya etish o‘qituvchilarning ishlari saviyasini ko‘tarishga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ernazarov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent: ”Ilmziyo”, 2013
2. Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Boshlang‘ch sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
3. Maqulova B ,Nasriddinova D. Kitobim - oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish kitobi). - T.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2018.
4. Maqulova B ,Nasriddinova D. Kitobim - oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish kitobi). - T.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2018.



5. Nasriddinova D. Kitobim - oftobim (3-sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish kitobi).
- T.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2018.
6. Nasriddinova D. Kitobim - oftobim (4-sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish kitobi).
- T.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2018.
- 7.Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.